

Bank Ustavining talablariga muvofiq va korporativ boshqaruv kodeksi qoidalariga riosa etilishini nazorat qilish maqsadida "Kapitalbank" ATB har yili mustaqil auditorlik tashkilotlarini jalg qilgan holda korporativ boshqaruv tizimini baholashini o`tkazadi.

2019 yil yakunida "BALANS-INFORM-AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti "Kapitalbank" ATBning korporativ boshqaruv tizimini baholashni O`zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan 2016 yil 25 iyulda tasdiqlangan korporativ boshqaruv tizimini baholash so'rovnomasi asosida o'tkazdi.

Hisobot yilining yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruvni baholash natijalariga ko'ra "Kapitalbank" ATB Yuqori baholandи. Yakuniy haqiqiy ball - 1200 darajadan 1035 ballni, bu foiz nisbatida 86 foizni tashkil etadi.

Bank 2020 yil yakunlariga ko'ra "Kapitalbank" ATB Korporativ boshqaruv kodeksining barcha asosiy talablariga riosa qilgan va ularni saqlagan holda ularni takomillashtirishni rejalashtirmoqda.

Ammo shu bilan birga, Kodeksning "rioya qil yoki tushuntir" tamoyiliga binoan, bank uning barcha qoidalariga riosa qilmaslik huquqiga ega. Bunday holda, bank bajarilmaslik sabablarini, shuningdek, u tomonidan ishlatiladigan muqobil mexanizmlarni oshkor qilishi kerak.

Ishonchimiz komilki, rahbar va ijro etuvchi organning (bank Boshqaruvi) a'zolarini tanlov asosida tanlash talablari biz uchun ahamiyatsizdir, chunki bank tomonidan O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan boshqa mexanizmlardan foydalaniladi. Shu munosabat bilan Bank aksiyadorlari va Kuzatuv kengashi ochiq tanlovsiz bank Boshqaruvi a'zolarini tayinlashning muqobil mexanizmini tanlamoqda.